ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.I.06.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

QURBONOV ALISHER BOBOKULOVICH

HUDUDLARDA AGROTADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

IQTISODIYOT fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Urganch – 2026-yil

UDK: 338.43:334.72:332.1(575.152)

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Contents of the of Doktoral (DSc) dissertation Abstract

Qurbonov Alisher Boboqulovich
Hududlarda agrotadbirkorlikni rivojlantirish va samaradorligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish (Qashqadaryo viloyati misolida).....3

Курбанов Алишер Бобокулович
Совершенствование методологических основ развития агропредпринимательства в регионах и повышения его эффективности (На примере Кашкадарьинской области).....39

Kurbonov Alisher Bobokulovich
Improving the methodological foundations for developing agribusiness in the regions and increasing its efficiency (A case study of Kashkadarya region)……79

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……84

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.I.06.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT TEXNIKAUNIVERSITETI

QURBONOV ALISHER BOBOQULOVICH

HUDUDLARDA AGROTADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

IQTISODIYOT fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Qarshi – 2026-yil

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.DSc/Iqt1152 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Qarshi davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Rasmiy opponentlar:	**Ruzmetov Baxtiyar** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
	Mullabayev Baxtiyorjon Bulturbayevich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
	Toshaliyeva Saodat Taxirovna iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.06.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “_____” _____ soat _____:____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko‘chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks: (99 862) 224-57-00, e-mail: info@urdu.uz

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko‘chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: info@urdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil “_____”_____kuni tarqatildi.

(2026-yil “____” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

I. S. Abdullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

T. J. Raximov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

B. Ruzmetov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kirish (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda agrotadbirkorlikning iqtisodiy barqarorligi, qishloq joylarda agrobiznes faoliyat sohalarini kengaytirish va tabiiy oziq-ovqat yetishmovchiligni ta'minlash asrimizning eng muhim muammolaridan biri sanaladi. Jahon miqyosida agrar mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojning oshishi, iqlim o'zgarishining qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga salbiy ta'siri, suv va yer resurslarining cheklanganligi bugungi kunning eng global muammolaridan biridir. Xususan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlarining barqaror emasligi, mamlakatlarning geografik joylashuvidagi farqlar sababli logistik zanjirlardagi uzilishlar mavjudligi hamda qishloq aholisining daromad manbalarini diversifikatsiya qilish zarurati agrotadbirkorlikni yangi bosqichda rivojlantirishni taqozo etmoqda. Keyingi yillarda rivojlangan mamlakatlarda narx dinamikasiga qaramasdan aholining sifatli qishloq xo'jaligi mahsulotlarga ehtiyoji oshib bormoqda. AQShda o'tkazilgan so'rovnomada esa iste'molchilar oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilishda arzonroq mahsulotlarga o'tayotgani ta'kidlangan. Bu esa yuqori kategoriyali tovarlar savdosiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda agrotadbirkorlikning kelajakda istiqbolini o'zgartirish lozimligini ko'rsatadi[1]. BMT hisobotlarida dunyo aholisining taxminan 25-30 foizida oziq-ovqat yetishmovchiligi mavjudligi ta'kidlangan. Bu qishloq xo'jaligida iqlim o'zgarishlari, qurg'oqchilik va boshqa tabiiy ofatlarga duchor bo'lgan hududlarda keskin seziladi[2].

FAO, IFAD, UNICEF, WFP va WHO tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan "Dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi va ovqatlanish holati 2025" nomli hisobotida 2025-yilda dunyo bo'yicha taxminan 673 mln kishi ochlik holatiga duch kelgani, 2,3 mlrd kishi esa o'rtacha yoki og'ir darajada oziq-ovqat xavfsizligi muammosini boshdan kechirgani qayd etilgan[3]. Bu holat agrotadbirkorlik faoliyatini faqat qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi emas, innovatsiya, qayta ishlash, xizmat ko'rsatish, logistika zanjirining bir bo'g'ini va eksportni hududiy birlashtiradigan iqtisodiy subyekt sifatida o'rganishni taqozo qiladi. Dunyo amaliy tadqiqotlarida agrotadbirkorlik samaradorligini baholashda faqat qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish miqdori va undan keladigan daromad bilan cheklanib qolmaydi. Jahon banki agrotadbirkorlikni iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, kambag'allikdan chiqarish, fermer ishlab chiqarishidan iste'molchigacha bo'lgan zanjirni yaratishning manbai sifatida baholaydi[4]. OECD tashkiloti tomonidan 54 mamlakatda o'tkazilgan agrar monitoringda 2022-2025-yillarda qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash miqdori yiliga 842 mlrd. AQSh dollarini tashkil etib, ularning katta qismi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga yo'naltirilgan[5]. Bu esa innovatsiya, raqamli xizmatlar, bozor mexanizmining ta'sir ko'rsatuvchi omillar asosida agrotadbirkorlikni

[1] https://digitalfoodlab.com/at-a-crossroads-what-2025-revealed-about-the-future-of-food/
[2] https://xdp.uz/oz/partiya-yangiliklari/11311
[3] FAO, IFAD, UNICEF, WFP, WHO. The State of Food Security and Nutrition in the World 2025. https://www.fao.org/publications/fao-flagship-publications/the-state-of-food-security-and-nutrition-in-the-world/en
[4] World Bank. Farming and Agribusiness. https://www.worldbank.org/ext/en/topic/farming-and-agribusiness
[5] OECD. Agricultural Policy Monitoring and Evaluation 2025. https://www.oecd.org/en/publications/2025/10/agricultural-policy-monitoring-and-evaluation-2025_354e7040.html

rivojlantirish va samaradorligini oshirish metodologiyasini kengaytirishni taqozo qiladi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida agrotadbirkorlikni kompleks rivojlantirish mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Hududlarni kompleks va mutanosib rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, qishloq xo‘jaligida qo‘shilgan qiymat zanjirlarini shakllantirish hamda mamlakatning agrar eksport salohiyatini yuksaltirish shular jumlasidandir. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida agrar mahsulotlarning eksport hajmini 10 mlrd. AQSh dollariga yetkazish, agrar sohaga 10 mlrd. AQSh dollari miqdorida investitsiya jalb qilish, suv tejamkorligi va yer unumdorligini oshruvchi texnologiyalarni joriy qilish kabi vazifalar belgilangan[6]. Demak, agrotadbirkorlikni rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishda aniq strategiyani belgilash uchun mavjud baholash usullarini qishloq xo‘jaligiga kirib kelayotgan yangi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda takomillashtirish ilmiy va amaliy jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2026-yil qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlat tomonidan 52 trillion so‘m ajratilishini ta’kidladi[7]. Shuningdek, oziq-ovqat jamg‘armalariga ajratilgan mablag‘ 2,5 barobarga, ya’ni 500 mlrd.so‘mga yetkazish hamda meva-sabzavotga ixtisoslashgan 1000 ta mahallaga 100 tonna hajmida kichik sovutgichli omborlar qurish rejalashtirilgan. Shu jihatdan qishloq xo‘jaligida unumdorlikni oshirishda biomuhandislikdan keng foydalanish, ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash, ekologik barqarorlikni ta’minlashda agrotadbirkorlik faoliyatidan foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.O‘zbekiston Respublikasida agrotadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar va amaliy islohotlarning asosi bir qancha strategik huquqiy hujjatlarga tayanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrda PF-5853-sonli “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi” nomli farmoni tasdiqlanib, unda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish, qo‘shilgan qiymat zanjirini hosil qilish, kooperatsiya munosabatlari, raqamli texnologiyalar va ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish belgilab qo‘yilgan[8]. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” hududlarni kompleks rivojlantirish, tuman va shahar imkoniyatlarini muvozanatlashtirish, hududlar kesimida taraqqiyot dasturlarini amalga oshirishni belgilaydi[9]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish, hosildorlik va yerlarning daromadliligini, investitsiya va yangi texnologiyalarni jalb qilish orqali agrotadbirkorlik samaradorligini oshirish vazifalari qo‘yilgan[10].

[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF–158-son Farmoni — “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi. https://lex.uz/docs/6600413
[7] https://president.uz/uz/lists/view/8834
[8] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.10.2019 yildagi PF–5853-son Farmoni
[9] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF–60-son Farmoni
[10] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF–158-son Farmoni. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 2-dekabrdagi PQ-413-son “Qishloq xo‘jaligi sohasida boshqaruvni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hududlar agrosanoat tarmog‘ida yagona integratsiyalashgan davlat boshqaruvi tizimini yo‘lga qo‘yish zarurligi belgilab qo‘yilgan. Bu agrotadbirkorlik samaradorligini boshqaruv, institutsional va raqamli texnologiyalar asosida baholashni talab etadi[11]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-avgustdagi PF-130-son “Qishloq xo‘jaligi sohasida zamonoviy texnologiyalarni yanada jadallashtirish orqali samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida qishloq xo‘jaligining raqamli tranformatsiya jarayonini jadallashtirish yer-suv resurslaridan samarali foydalanish, samaradorligi yuqori mahsulotlarga e’tiborni kuchaytirish, interfaol xizmatlar va dronlardan foydalanish xizmatini kengaytirish vazifalari qo‘yilgan. Bu hududlarni agrotadbirkorlik samaradorligini baholash raqamli axborotlar, nazorat, prognozlash, va ko‘rsatkichlar majmuasini metodologik asos sifatida qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy va axloqiy hamda madaniy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish”ning ustuvor yo‘nalishlariga mos keladi.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi[12]. Ushbu tadqiqot mavzusi doirasida ilmiy izlanishlar FAO, World Bank, OECD, CGIAR, IFPRI, Wageningen University & Research, ICARDA va IWMI kabi ilmiy-amaliy tashkilotlar va ilmiy-tadqiqot markazlarida olib borilayotgan agrotadbirkorlik, oziq-ovqat yetkazib berish strukturasi, qo‘shilgan qiymat zanjiri, iqlim o‘zgarishi, suvdan samarali foydalanish, agrotadbirkorlik faoliyati shakllarini takomillashtirish hamda samaradorligini oshirish bo‘yicha tadqiqotlar bilan uzviy bog‘liq. CGIAR tizimi oziq-ovqat xavfsizligi, yer-suv resurslarini iqlim o‘zgarishi sharoitiga moslashtirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlarni tahlil qilib, amaliyotga joriy qilish bilan shug‘ullanadi. IFPRI agrar siyosat, kambag‘allikni qisqartirish, oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha tahlillar asosida siyosiy yechim va tavsiyalar ishlab chiqadi. Wageningen University & Research ilmiy tadqiqot markazi oziq-ovqat yetkazib berish strukturasi, qiymat zanjiri, resurslardan samarali foydalanish, agrosamaradorlik bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradi. ICARDA cho‘l va yarim cho‘l hududlarida suvsizlikka chidamli ekinlar, suv tejovchi texnologiyalar va yerni taqsimlash, qishloq turmush farovonligiga qaratilgan ilmiy va amaliy izlanishlar olib boradi. IWMI ilmiy tadqiqot markazi esa Markaziy Osiyo mamlakatlarida suv resurslarini boshqarish va qishloq xo‘jaligi

[11] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2024 yildagi PQ–413-son qarori. https://lex.uz/docs/7244818

[12] Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: World Bank. Farming and Agribusiness. https://www.worldbank.org/ext/en/topic/farming-and-agribusiness. OECD. Agricultural Policy Monitoring and Evaluation 2025. https://www.oecd.org/en/publications/2025/10/agricultural-policy-monitoring-and-evaluation-2025_354e7040.html.CGIAR, System: Vision and Mission. https://www.cgiar.org/cgiar-system. CGIAR Research Portfolio 2025–2030. https://www.cgiar.org/cgiar-research-portfolio-2025-2030. International Food Policy Research Institute (IFPRI). Official website. https://www.ifpri.org/. Wageningen University & Research. Sustainable food systems. https://www.wur.nl/en/themes/sustainable-food-systems. ICARDA. Science for resilient livelihoods in dry areas. https://icarda.org/. International Water Management Institute (IWMI). Uzbekistan. https://www.iwmi.org/where-we-work/uzbekistan/

ekinlarini sug‘orish samaradorligi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasining tabiiy-iqtisodiy xususiyatlari, jumladan, suv yetishmovchiligi, sug‘oriladigan yerlarning cheklanganligi, cho‘l, yaylov va tog‘oldi yerlarining ko‘pligi xalqaro ilmiy yondashuvlarni hududiy agrotadbirkorlikni rivojlantirish metodologiyasiga moslashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

O‘zbekistonda ham qishloq xo‘jaligi va agrotadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi “Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar” milliy markazi, “Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat ilmiy ishlab chiqarish markazi”, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti, Toshkent agrar universiteti ilmiy va amaliy izlanishlar bilan shug‘ullanib kelmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy olimlardan R.Divanbeigi, N.Paustian, N.Loyzano, P.Crosson, J.R.Anderson, Y.G.Tyunen. W.Kristaller G.A Alsos, S.Carter, E.Ljunggren, F.Welter, S.L. Claudia Dias, R.G.Rodrigues, J.Jao Ferreira, G.Jorunn, E.Madsen, Odd Lans Borch, T.Seuneke, P.Klerkx, L.R.Fare, S.Grosskopf, M. Norris Z. Zhang[13]lar agrotadbirkorlikning mintaqaviy jihatlari hamda qishloq joylarning urbanizatsiyalashuvida tadbirkorlikning ahamiyatini chuqur tadqiq etishgan. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi korxonalarining ijtimoiy – iqtisodiy samaradorligini oshirish va baholash bo‘yicha ham tadqiqotlar olib borganlar.

MDH mamlakatlari olimlaridan I.V.Ukrainseva, I.I.Juravleva, A.V.Turovaya, N.A.Polushkin. A.N. Grekov, E.N Krilatix, A.V.Chayanov, O.S.Anisimova. O.A.Frolova, V.A. Cherkasov, A. Shamin, D.V.Yenina., T.S Alekseenko, M.N.Kabanenko[14] va boshqalar agrar siyosat va qishloq xo‘jaligida tadbirkorlik

---

[13] Raian Divanbeigi, Nina Paustian, and Norman Loayzano. Structural Transformation of the Agricultural Sector: A Primer Research & Policy Briefs from the World Bank Malaysia Hub 2, March 2016, Crosson, P. & Anderson, J.R. 1995. Achieving a sustainable agricultural system in sub-Saharan Africa. Building Blocks for AFRICA 2025, Paper 2, Тюнен Й.Г. Изолированное государство в его отношении к сельскому хозяйству. – М. 1926. – 326 с. W. Kristaller Central Places in Southern Germany. Englewood Cliffs / W. Kristaller. – N.J., 1966. –230 p. Леш А. Пространственная организация хозяйства / А. Леш. – М.: Наука, 2007. – 664 с. Alsos GA, Carter S, Ljunggren E, Welter F, editors. The handbook of research on entrepreneurship in agriculture and rural development. Cheltenham/Northampton: Edward Elgar; 2011. Claudia S.L. Dias, Ricardo Gouveia Rodrigues, João J. Ferreira, Agricultural entrepreneurship: Going back to the basics, Journal of Rural Studies, Volume 70, 2019, Pages 125-138. Grande, Jorunn & Madsen, Einar & Borch, Odd. (2011). The relationship between resources, entrepreneurial orientation and performance in farm-based ventures. Entrepreneurship and Regional Development - ENTREP REG DEV. 23. 89-111. Lans, T., Seuneke, P., Klerkx, L. (2013). Agricultural Entrepreneurship. In: Carayannis, E.G. (eds) Encyclopedia of Creativity, Invention, Innovation and Entrepreneurship. Springer, New York, NY. R. Fare, S. Grosskopf, M. Norris and Z. Zhang. Productivity Growth, Technical Progress, and Efficiency Change in Industrialized Countries.The American Economic Review, Vol. 84, No. 1 (Mar., 1994), pp. 66-83.

[14] Украинцева И. В. / Предпринимательская деятельность и ее особенности в сельском хозяйстве // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017.–100–103 с. Журавлева И.И. Предпринимательство в сельском хозяйстве: проблемы и перспективы развития. Иркутский государственный университет, г. Иркутск. 2018. Туровая А.В. Развитие программ по устойчивому развитию сельских территорий в аграрных регионах / А.В. Туровая, Е.В. Яроцкая // Новая наука: Современное состояние и пути развития.– 2016. – №3-1. – С. 219. Полушкин Н.А. Государственное регулирование развития сельских территорий / Н.А. Полушкин // Дисс.канд. экон. наук. – Саранск, 2017. – 224 с. Греков А.Н. Существенные направления и механизм устойчивого развития сельских территорий / А.Н. Греков, Н.С. Грекова // Агропродовольственная политика России. – 2017. – №2(62). – С. 73-76. 67, Крылатых Э.Н., Фролова Е.Ю. А.А.Никонов: жизнь и вклад в науку // Крестьяноведение 2018. Т.3. №2. С. 71-85 б. A.V.Chayanov on the theory of peasant economypublished for the american economic association by Richard Dirwin, inc. homewood, illinois 1966 pp-336-348. Анисимова О.С. Аграрная политика и стратегия развития селъских территорий: опыт стра ЕС // Никоновские чтения. — М.: МСХА им. К. А. Тимирязева, 2011. -№ 16. – С.20. О.А.Фролова Государственное регулирование сельского хозяйства: зарубежный опыт/ О. А. Фролова, С. Ю. Васильева// Вестник НГИЭИ. — Н.: НГИЭИ, 2011. -№ 5. –С.76–83., Черкасов В. А. Зарубежный опыт развития

faoliyati shakllarini takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan.

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan Q.Muftaydinov, A.O.Aripov, N.S.Kasimova, S.K.Salaev, B.U.Tadjiev, SH. Hasanov, Mirza Nomman Ahmed, N.A.Ashurmetova, A. Saparov, N.Dexkanova, E. Sadiev, D.Tadjibaeva, M.X.Saidov, A.K. Aytbaev, I.P.Pirlepesova, M.Sh.Axmedova, A.M.Turgunov, T.O.Doniyorov[15] va boshqalar qishloq xo‘jaligida yer-suv resurslaridan foydalanish, qishloq xo‘jaligida tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish, qishloq xo‘jaligida tavakkalchilik masalalariga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Qarshi davlat texnika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq hamda 2022-2030 yillarga mo‘ljallangan ITD-2 “Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, miliiy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va erkinlashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish” mavzusidagi davlat ilmiy texnika amaliy tadqiqotlar loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Hududlarda agrotadbirkorlikni rivojlantirish va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy, metodologik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

agrotadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy asoslari va mintaqaviy xususiyatlari o‘rganildi;

сельского хозяйства как одного из способов обеспечения продовольственной безопасности/В. А. Черкасов //Вестник ТГУ. — Т.: ТГУ, 2010. -№ 6. -С. 14–18. Шамин А. Опыт решения аграрных проблем в сельском хозяйстве Китая/ А. Е. Шамин, Н. Г. Вождаева// Вестник НГИЭИ. — Н: НГИЭИ, 2022. -№ 2. –С. 15–20. Енина Д.В., Алексеенко Т.С. К вопросу о становлении и развитии крестьянских (фермерских) хозяйств в России и мире // Экономика и сельское хозяйство. – 2018. – No 1. – с. 4. Кабаненко М.Н. Реализация кластерного подхода в стратегии регионального развития на примере Ростовской области // Вестник Северо-Кавказского гуманитарного института. – 2017. – No 2. – с. 44-51.

[15] Muftaydinov Q. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari: iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.-T.: 2004. – 10 b. Aripov A.O. Kichik va xususiy biznesni davlat tomonidan tartibga solish muammolari: Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2006. – 15 b. Kasымova N.S. O‘zbekistonda xususiy tadbirkorlikni tashkil etish masalalari: Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2007. – 13 b. S.K.Salaev. B.U.Tadjiev “Qishloq joylarda kichik biznes va xusuiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish mexanizmlari” monografiya /Toshkent-2022 y. 14-15 betlar. Shavkat Hasanov, Mirza Nomman Ahmed. Agricultural efficiency under resource scarcity in Uzbekistan: A Data Envelopment Analysis. Journal: Business and Economic Horizons Issue Year:2011 Issue No:04 Page Range:81-87 р. Н. Ашурметова, А. Сапаров. "Тенденции развития фермерских хозяйств в Узбекистане и факторы повышения их эффективности" Central Asian Academic Journal of Scientific Research, vol. 1, no. 2, 2021, pp. 40-49. Дехканова Н., Садиев Э. Развитие предпринимательства в сельском хозяйстве Узбекистана // Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования. 2016. №2 (12). Таджибаева Д. Фермерские хозяйства и научно-теоретические основы их эффективности // Региональная экономика: теория и практика. 2016. №8 (431). Саидов М.Х., Ашурметова Н.А.Состояние и тенденции стратегического развития сельского хозяйства в Республики Узбекистан (Вестник экономики и права. 2024. №96. А.К. Айтбаев Пирлепесова И. П. Трансформация сельского хозяйства в республике Узбекистан // Мировая наука. 2022. №9 (66). Ахмедова М.Ш. Статистические наблюдения фермерских хозяйств в республике Узбекистан // Проблемы науки. 2021. №3 (62). Turgunov. A.M Suv tanqisligi sharoitida sug‘orish tizimlarining aqlli boshqaruvi: Qashqadaryo viloyati va Qosh-tepa kanali ta’siri misolida. Innovatsion texnologiyalar. 2025-yil 4(60)-son. 96-102 betlar. Doniyorov, T.O. Qashqadaryoning sho‘rlangan tuproqlari meliorativ holatini yaxshilashda spersal kimyoviy meliorantini qo‘llash natijalari // ORIENSS. 2023. №1.

hududlarda agrotadbirkorlik faoliyati shakllari va ularning samaradorligini baholashdagi yondashuvlar tahlil qilindi;

agrotadbirkorlikning xorijiy tajribalari va ularni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi;

mintaqada agrotadbirkorlik faoliyatinining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholashda uslubiy yondashuvlar asoslandi;

agrotadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va hududiy samaradorligini baholash metodikasi ishlab chiqildi;

hududlarda agrotadbirkorlik samaradorligining mintaqaviy muvozanatini aniqlash usullari takomillashtirildi;

iqtisodiy zonalarda agrotadbirkorlikning ijtimoiy – iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili qilindi;

Qashqadaryo viloyati agroiqtisodiy hududlarida tadbirkorlik faoliyatining xususiyatlari o‘rganildi;

Qashqadaryo viloyatida agrotadbirkorlikning rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlili asosida hududlar segmentlandi;

agrar sektorda tadbirkorlikni rivojlantirishning konseptual asoslari ishlab chiqildi;

agrotadbirkorlik faoliyatida resurs intensivligiga asoslangan ishlab chiqarish salohiyatini oshirish usullari aniqlandi;

mintaqa qishloq xo‘jaligida agrotadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish istiqbollari va ustuvor yo‘nalishlari asoslandi.

Tadqiqot obyekti. Qashqadaryo viloyati agrar sohasining ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, qayta ishlash, logistika, infratuzilma yo‘nalishlarida faoliyat ko‘rsatayotgan agrotadbirkorlik subyektlaridan iborat.

Tadqiqot predmeti. Hududlarda agrotadbirkorlikni rivojlantirish va samaradorligini oshirish hamda baholashda foydalaniladigan iqtisodiy, tashkiliy, institutsional va metodologik munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda mantiqiy fikrlash, guruhlash, taqqoslama tahlil, matematik-statistik, normalashtirish, ekspert baholash, ekonometrik prognozlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mintaqada agrar sektorni intensivlashtirish jarayonlarini faollashtiruvchi allokatsion omillari ta’sirida shakllangan stimulyator $I_{as} = \frac{1}{n}\sum_{b}^{a} I_{jh}^{s}$ va distimulyator $I_{ads} = \frac{1}{n}\sum_{b}^{a} I_{jh}^{ds}$ indikatorlarining $I_{as} > 0.43, I_{ads} < 0.34$ mezon darajalariga bog‘liq integrallashgan $I = I_{as}^{0,5} * I_{ads}^{0,5}$ modeli asosida agrotadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish usuli taklif etilgan;

mintaqa agrar tarmoqlari uyg‘unligini ta’minlovchi boshqaruv sifati (B), ishlab chiqarishni tashkil etish darajasi (I), omillar sarfi (O) subindekslari tarkibiy ko‘rsatkichlarning dinamik o‘zgarishlarini persintil uslubida hisoblangan o‘rtacha qiymatga birlashtiruvchi agropotensial hamda $0{,}15 < ASB < 1$ cheklovi bo‘yicha shakllantirilgan hududlararo agromuvozanat ($ASB = \sqrt[n]{B * I * O} * \left(1 - (\max(BIO) - \min(BIO))\right)$ modeli ishlab chiqilgan;

mintaqa agrar ishlab chiqarish salohiyatiga ta’sirchan ($R_1, \dots, R_8$) ko‘rsatkichlar reytingi kombinatsiyasi orqali hududlarni ($S_1 = 0{,}3\ R_1 + 0{,}3R_2 + 0{,}4R_6$) sug‘oriladigan intensiv, ($S_2 = 0{,}3R_3 + 0{,}3R_4 + 0{,}4R_5$) mehnat resurslari ta’sirida diversifikatsiyalashgan, ($S_3 = 0{,}3\ R_2 + 0.3\ R_6 + 0.4R_7$) investitsiyalar va eksportga yo‘naltirilgan, ($S_4 = 0{,}3\ R_2 + 0{,}3R_4 + 0.4\ R_8$) qo‘shilgan qiymat zanjiriga tayangan qayta ishlash segmentlariga taqsimlash asosida agrotadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi takomillashtirilgan;

mintaqa agrotadbirkorlik faoliyatida resurs intensivligiga asoslangan CEMO samaradorlik indeksi (CSI) ning CSI>0,8 chegaraviy holatidan CSI=1 barqaror holatiga o‘tish jarayonlarini optimallashtirish bilan bog‘liq ishlab chiqarishning qoplanmagan zaxirasini baholash modeli $\widehat{out}_{sG} = \hat{u} \cdot out_{sG} + \pi_i^+$ yordamida qayta ishlangan va innovatsion mahsulotlar hajmini hamda qo‘shilgan qiymat yaratish salohiyatini oshirish usuli taklif etilgan;

Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligida agrotadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish ko‘rsatkichlarining 2026-2030-yillar uchun vaqtli qator modellari asosida prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

tadbirkorlik nazariyalariga yondashuvlar, mulohazalar hamda qishloq xo‘jaligining evolyusion rivojlanishi jarayonida vujudga kelgan ijtimoiy – iqtisodiy kategoriya sifatida agrotadbirkorlik va agrosamaradorlikka ta’rif berilgan;

iqtisodiyot tarmoqlarining tarkibiy o‘zgarishlarini keltirib chiqargan texnologik to‘lqinlarni to‘rt, ya’ni mexanizatsiya va energiya bazasi, intensiv texnologiyalar, biotexnologiya va innovatsiya, raqamli va smart texnologiya bosqichlariga bo‘linib, ularning agrotadbirkorlikka mintaqaviy ta’siri baholangan.

agrotadbirkorlikni iqtisodiy, ishlab chiqarish, resurslar, moliyaviy barqarorlik, ijtimoiy va innovatsion samaradorlik mezonlari bo‘yicha boshlang‘ich va yakuniy bosqichlarida baholash mexanizmi ishlab chiqilgan;

agrotadbirkorlikning ijtimoiy – iqtisodiy samaradorligiga ta’sir qiluvchi ichki va tashqi muhitning makro va mikro darajadagi ko‘rsatkichlar turkumlashtirilib, ularga ta’sir qiluvchi $\boldsymbol{I^s}$- stimuliyator, $\boldsymbol{I^{ds}}$ distimulyator ko‘rsatkichlarga ajratilgan;

agrosamaradorlik mezonini $0.1 < \boldsymbol{I_{as}} \boldsymbol{I}_{\ \boldsymbol{ads}} < 1$ oraliqda baholashda $\boldsymbol{I^s} = \frac{x-a}{b-a}$ stimulyator va $\boldsymbol{I}_{\ \boldsymbol{ads}} = \frac{a-x}{b-a}$ distimulyator ko‘rsatkichlarini moslashtirish uchun ikki chegarali ortib borish va kamayib borish tendensiyasida ham samaradorlikka ijobiy ta’sir qiluvchi ko‘rsatkichlar ajratib olindi;

agrotadbirkorlik samaradorligining muvozanat qiymati 0,7-1,0 oralig‘ida bo‘lsa – barqaror muvozanat, 0,5-0,69 oralig‘ida – o‘rtacha muvozanat va ayrim bloklarda cheklovlar mavjudligi, 0,3-0,49 oralig‘ida – tizimli nomutanosiblik mavjudligi, 0 - 0,29 oralig‘ida esa samaradorlikni ta’minlovchi bloklar ta’siri yetarli emasligi mezonlari asosida baholanganda, Qashqadaryo viloyatida ushbu ko‘rsatkich 0,15 ga teng ekanligi aniqlandi;

agrotadbirkorlikni baholashda b-boshqarish sifati, i-ishlab chiqarishni tashkil etish darajasi va o-omillar sarfi natijalarini ifodalovchi ko‘rsatkichlarning Qashqadaryo viloyatida bloklar cheklovi $\Delta B = 0{,}10,\ \Delta I = 0{,}13,\ \Delta o = 0{,}03$ qiymatlarga ega ekanligi aniqlangan;

qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish xususiyatlaridan kelib chiqib “natija -resurs – samaradorlik” tamoyili asosida iqtisodiy zonalashtirish asosida mavjud to‘siqlar aniqlashtirilib, qo‘shilgan qiymatni ko‘paytirish uchun zarur bo‘lgan dasturlar ishlab chiqish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan;

agrotadbirkorlik qobilyatiga tegishli tumanlarning $R_1 - R_8$ ko‘rsatkitchlari bo‘yicha reytingi hisoblanib, blok ko‘rsatkichlarining normalashtilgan qiymatlarini $\omega_1 - \omega_8$ vazn ulushlari asosida hududni segmentlarga ajratish metodikasi ishlab chiqilgan;

Qashqadaryo viloyatining tabiiy-iqtisodiy, ma’muriy – hududiy bo‘linishini hisobga olgan holda to‘rt, ya’ni, sug‘oriladigan intensiv tadbirkorlik, mehnat resurslariga tayangan diversifikatsiyalashgan tadbirkorlik, investitsiyalar va eksportga yo‘naltirilgan segmentlarga ajratish mumkinligi aniqlangan;

agrotadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy tajribalarni joriy qilish bo‘yicha budjet mablag‘larini sarflash tadbirlarning yo‘l xaritasi tuzilib, ularni 2026-2027 yillar mobaynida qisqa muddatda (17%), o‘rta (43%) va uzoq muddatda (40%)ga yo‘naltirish taklifi berilgan;

agrotadbirkorlik faoliyatida resurs intensivligiga asoslangan CEMO samaradorlik indeksi (CSI) ning CSI>0,8 chegaraviy holatidan CSI=1 barqaror holatiga o‘tish jarayonlarini optimallashtirish bilan bog‘liq ishlab chiqarishning rezervlari bo‘yicha ilg‘or, o‘rtacha, past darajali hududlarga ajratilgan;

Qashqadaryo viloyatida agrotadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish ko‘rsatkichlari bo‘yicha 2026-2030 yillarga mo‘ljallangan prognoz natijalariga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmi 2025-yilga nisbatan 1,25 barobarga kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 1,28 barobarga, innovatsion mahsulotlar hajmi esa 2,49 barobarga oshishi bashorat qilingan.

Tadqiqot natijalarinig ishonchliligi. Tadqiqotda qo‘llanilgan ilmiy-nazariy, metodologik yondashuvlar, tadqiqot va tahlil usullari, ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, amalga oshirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika usullari bilan asoslanganligi, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi hamda tadqiqot natijalarining amaliy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot ishini amalga oshirish jarayonida olingan natijalarning ishonchliligi mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning ishlab chiqarish xizmat ko‘rsatish, logistika, infratuzilma yo‘nalishlarida agrotadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish va baholashni takomillashtirishning ilmiy-uslubiy jihatlariga qaratilgan ilmiy-nazariy tahlil, tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan metodologik yondashuv va usullarning asoslanganligi, shuningdek taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o‘tganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida agrotadbirkorlik va agrosamaradorlikning nazariy ta’riflari hamda uning tashkiliy-iqtisodiy, tabiiy-geografik, hududiy jihatdan takomillashtirilgan ilmiy usulubiy asoslari, xorijiy tajribalarni joriy qilishning yo‘l xaritalarini shakllantirish bilan bog‘liq bilimlarini boyitish imkonini beradi. Amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar agrotadbirkorlikni rivojlantirish orqali qishloq

joylarda aholi bandligini oshirish, agrotadbirkorlik samaradorligini baholash mexanizmini takomillashtirish, samaradorlik subindekslari majmuasi asosida agrotadbirkorlikning hududiy muvozanat darajasini aniqlash hamda tadbirkorlik qobiliyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar reytingi orqali qishloq hududlarini segmentlarga ajratish va ularni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini amaliyotga joriy etishda namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Hududlarda agrotadbirkorlikni rivojlantirish va samaradorligini oshirish va uni baholashning ilmiy-uslubiy asoslari yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar asosida:

mintaqada agrar sektorni intensivlashtirish jarayonlarini faollashtiruvchi allokatsion omillari ta’sirida shakllangan stimulyator $\mathrm{I_{as}} = \frac{1}{\mathrm{n}}\sum_{\mathrm{b}}^{\mathrm{a}} \mathrm{I_{jh}^{s}}$ va distimulyator $\mathrm{I_{ads}} = \frac{1}{\mathrm{n}}\sum_{\mathrm{b}}^{\mathrm{a}} \mathrm{I_{jh}^{ds}}$ indikatorlarining $\mathrm{I_{as}} > 0.43, \mathrm{I_{ads}} < 0.34$ mezon darajalariga bog‘liq integrallashgan $\mathrm{I} = \mathrm{I_{as}^{0,5}} * \mathrm{I_{ads}^{0,5}}$ modeli asosida agrotadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish usuli taklif etilgan bo‘lib, Qashqadaryo viloyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-avgustdagi PF-130-son “Qishloq xo‘jaligi sohasida zamonaviy texnologiyalarni yanada jadallashtirish orqali samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosi bo‘yicha qarorlar ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2026-yil 17-iyundagi 05/04-04-589-sonli ma’lumotnomasi). Natijada agrotadbirkorlikning bir gektar yerdan olgan daromadning hududiy o‘sish darajasi 0,43, 1 m^3 suv hisobiga olgan daromadi 0,34 qiymatga ega bo‘lib, ikki omil ta’sirida umumiy integral o‘sish 0,38 ni tashkil qiladi. Shuningdek, agrotadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi ijobiy va salbiy omillarni turkumlash asosida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati yaratilgan;

Qishloq xo‘jaligi tarmoqlari uyg‘unligini ta’minlovchi boshqaruv sifati (B), ishlab chiqarishni tashkil etish darajasi (I), omillar sarfi (O) subindekslari tarkibiy ko‘rsatkichlarning dinamik o‘zgarishlarini persintil uslubida hisoblangan o‘rtacha qiymatga birlashtiruvchi agropotensial hamда $0{,}15 < \mathrm{ASB} < 1$ cheklovi bo‘yicha shakllantirilgan hududlararo agromuvozanat ($\mathrm{ASB} = \sqrt[\mathrm{n}]{\mathrm{B} * \mathrm{I} * \mathrm{O}} * \left(1 - (\max(\mathrm{BIO}) - \min(\mathrm{BIO}))\right)$ modeli ishlab chiqilgan bo‘lib, Qashqadaryo viloyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-avgustdagi PF-130-son “Qishloq xo‘jaligi sohasida zamonaviy texnologiyalarni yanada jadallashtirish orqali samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosi bo‘yicha qarorlar ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2026-yil 17-iyundagi 05/04-04-589-sonli ma’lumotnomasi). Natijada Qashqadaryo viloyatida agrosamaradorlikka ta’sir qiluvchi boshqaruv sifati subindeksi B =0,28, ishlab chiqarishni tashkil etish darajasi subindeksi $I = 0{,}56$, omillar sarfi natijalari subindeksi $O = 0{,}31$ qiymatga ega bo‘lib, hudud agrotadbirkorlik samaradorligining potensial muvozanat koeffitsient $K = 0{,}62$ ni tashkil qilgan holda haqiqiy muvozanat $ASB = 0{,}15$ qiymatni potensial qiymat $Pt = 0.24$ ga yetkazish belgilab olingan;

Qishloq joylarda ishlab chiqarish, qayta ishlash, xizmat ko‘rsatish, eksport salohiyati va qo‘shilgan qiymat zanjiriga ta’sirchan ($R_1, \dots, R_8$) ko‘rsatkichlar reytingi kombinatsiyasi yordamida hududlarni ($S_1 = 0{,}3\ R_1 + 0{,}3R_2 + 0{,}4R_6$) sug‘oriladigan intensiv,($S_2 = 0{,}3R_3 + 0{,}3R_4 + 0{,}4R_5$) mehnat resurslari ta’sirida diversifikatsiyalashgan, ($S_3 = 0{,}3R_2 + 0{,}3R_6 + 0{,}4R_7$) investitsiyalar va eksportga yo‘naltirilgan, ($S_4 = 0{,}3\ R_2 + 0{,}3\ R_4 + 0{,}4\ R_8$) qo‘shilgan qiymat zanjiriga tayangan qayta ishlash yo‘nalishlarida segmentlash asosida agrotadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi takomillashtirildi. Ushbu taklif Qashqadaryo viloyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-avgustdagi PF-130-son “Qishloq xo‘jaligi sohasida zamonaviy texnologiyalarni yanada jadallashtirish orqali samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosi bo‘yicha qarorlar ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2026-yil 17-iyundagi 05/04-04-589-sonli ma’lumotnomasi). Natijada Qashqadaryo viloyatida agrotadbirkorlikni rivojlantirishda qishloq xo‘jaligini intensivlashtirish, hududlarning eksport salohiyatini oshirish, mehnat resurslarining ish bilan bandligini oshirishda ishlab chiqarishni diversifikasiyalash, qo‘shilgan qiymat zanjirini hosil qilishda qayta ishlash hududlarini segmentlash asosida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha maqsadli qarorlar qabul qilish imkoniyatini bergan;

hududiy agrotadbirkorlik faoliyatida resurs intensivligiga asoslangan CEMO samaradorlik indeksi (CSI) ning CSI>0,8 chegaraviy holatidan CSI=1 barqaror holatiga o‘tish jarayonlarini optimallashtirish bilan bog‘liq ishlab chiqarishning qoplanmagan zaxirasini baholash modeli $\widehat{\mathrm{out}}_{sG} = \hat{u} \cdot \mathrm{out}_{sG} + \pi_i^+$ yordamida qayta ishlangan va innovatsion mahsulotlar hajmini hamda qo‘shilgan qiymat yaratish salohiyatini oshirish usuli taklif etilgan. Qashqadaryo viloyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-avgustdagi PF-130-son “Qishloq xo‘jaligi sohasida zamonaviy texnologiyalarni yanada jadallashtirish orqali samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosi bo‘yicha qarorlar ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2026-yil 17-iyundagi 05/04-04-589-sonli ma’lumotnomasi). Natijada Qashqadaryo viloyatining Qamashi, Qarshi, Koson, Kitob va Yakkabog‘ tumanlari tajribasini qolgan hudularda qo‘llash, ayniqsa Koson va Kitob tumanlari innovatsion mahsulot ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha 50-60 foiz salohiyatidan foydalanish, Qamashi tumani esa transport-logistika va innovatsion investitsiyalarni yuqori mahsulot hajmiga aylantirish bo‘yicha strategik rejalar ishlab chiqish imkoniyatini bergan;

Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligida agrotadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish ko‘rsatkichlarining 2026-2030-yillar uchun vaqtli qator modellari asosida prognoz parametrlari ishlab chiqilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-avgustdagi PF-130-son “Qishloq xo‘jaligi sohasida zamonaviy texnologiyalarni yanada jadallashtirish orqali samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni Qashqadaryo viloyatini 2025-2026-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha yo‘l xarita”sini amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2026-yil 17-iyundagi 05/04-04-589-sonli

ma’lumotnomasi). Natijada, Qashqadaryo viloyatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmi 2030-yilga borib 6249,61 mlrd. so‘mga yetishi hamda 2025-yilga nisbatan 1,25 barobarga oshishi, kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi ham izchil o‘sib, 2030-yilga kelib 6186,41 mlrd. so‘mga tashkil qilib, 2025 yilga nisbatan 1,28 barobarga, innovatsion mahsulotlar hajmi esa 2,49 barobarga oshishi agrotadbirkorlikda zamonaviy texnologiyalar, innovatsion ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonlarini jadal rivojlantirish imkoniyatini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan va ma’qullangan. Tadqiqot jarayonida olingan ilmiy xulosa va tavsiyalardan oliy o‘quv yurtlarida, “Mintaqa iqtisodiyoti”, “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti”, “Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi” kabi fanlarning o‘quv dasturlarini takomillashtirishda va ta’lim berish jarayonida foydalanilmoqda.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 26 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi OAK tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 16 ta maqola (14 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat bo‘lib, tarkibida 52 ta statistik va tahliliy jadval, 21 ta rasmni olgan holda 248 betda bayon etilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Hududlarda agrotadbirkorlik rivojlanishining nazariy-uslubiy asolari”** deb nomlangan bo‘limida agrotadbirkorlik rivojlanishiga qishloq xo‘jaligi sohasining evolyutsion rivojlanishida vujudga kelgan texnologik to‘lqinlarning mintaqaviy ta’siri hamda agrotadbirkorlik, agrotadbirkorlik samaradorligi tushunchalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ifodalovchi ta’riflar berilgan. Shuningdek, hududlarda agrotadbirkorlik faoliyati shakllari va ularning samaradorligini baholashga nazariy yondashuvlar va xorijiy tajribalarning O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari tadqiq qilingan.

Texnologik to‘lqinlar ta’sirida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish usuli, ularga sarflanadigan resurs, bozor mexanizmlari, moliyalashtirish manbalari, qiymat zanjirining bosqichlari o‘zgardi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, *birinchi* agrotexnologik to‘lqin bu qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalashtirish

hisoblanadi[16] (1870-1950 yy). Bu jarayonda qo‘l mehnatiga asoslangan ishlab chiqarish mashinalashtirilib, qayta ishlash texnikalari o‘zgardi va mahsulotlarni yetkazib berish qulaylashdi. Natijada yer bilan ishlash tezlashib, bir gektar yerdan olinadigan hosil oshdi. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish hududlarning nisbiy ustunligi bo‘yicha bozor talabiga ko‘ra rejalashtirila boshladi. *Ikkinchi* texnologik to‘lqin yashil inqilob bilan bog‘liq bo‘lib, qishloq xo‘jaligida intensivlashtirish jarayonini boshlab berdi[17](1960-1980 yy). Bu jarayonda qishloq xo‘jaligi ekinlarining yangi intensiv navlari, mineral o‘g‘itlarning yangi turlari, begona o‘tlarga qarshi kurashning yangi usullari, don mahsulotlarining intensivligini oshirish jarayoni sifatida xarakterlanadi. Bu bosqichda tadbirkorlik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishi agrosanoat majmui zanjiri bo‘yicha daromad olish ta‘minlandi. *Uchinchi* to‘lqin qishloq xo‘jaligiga biotexnologiyalarning kirib kelishi bilan tavsiflanadi[18] (1990-2010 yy). FAO tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, agrotexnologiyalarning tarqalishida birinchi yashil inqilob ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, ikkinchidan, genetika inqilobidir. Bu ikki ko‘rinish ham biotexnologiyalar bosqichida bo‘lib, bu yerda qo‘shilgan qiymat yaratishda yer va mehnatdan tashqari ilmiy – tadqiqot, genetika, seleksiya, intellekt va innovatsion investitsiyalar asosiy markazga ko‘chgan. Bu bosqich agrotadbirkorligida daromadni oshirish suv va yer resurslariga emas, hosildor nav, kasallik va qurg‘oqchilikka chidamli genetika, standart texnologiyalar va ilmiy-tadqiqot hamkorligiga bog‘liq bo‘lib qoladi. *To‘rtinchi* (hozirgi) agrotexnologik to‘lqin[19] (2010-h.v.) – raqamli va sun’iy intellekt bilan qurollangan smart texnologiya bosqichidir. Raqamli texnologiyalar va SI agrar sektorda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish va yetkazib berish, qayta ishlash tizimlarini tranformatsiya qilish, dehqonchilik va bozor o‘rtasidagi mahsulot miqdorini aniq rejalashtirish, iqlim sharoitlaridan kelib chiqib boshqaruvni, qiymat zanjirini aniq rejalashtirish imkoniyatini yaratuvchi bosqichni agrotadbirkorlik faoliyati amalga oshirmoqda. Yuqorida tahlil etilgan texnologik to‘lqinlarning agrar sektorga ta’sirining o‘zgarishi hamda xorijiy, MDH mamlakatlari, mahalliy olimlarning fikr va mulohazalarni umumlashtirib aytish mumkinki, qishloq xo‘jaligi sohasida ikki terminni ajratib olish lozim (1-jadval). Birinchidan, agrotadbirkorlik, ikkinchidan agrotadbirkorlik samaradorligi. *Agrotadbirkorlik* – qishloq xo‘jaligi xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan tavakkalchilik, resurs taqsimoti nuqtai nazaridan innovatsiyalarni, institutsional muhitni, bozor talabini, diversifikatsiya va barqaror rivojlanishni birlashtirib harakatlanuvchi faoliyatdir. Agrotadbirkorlik samaradorligi esa ushbu faoliyatning natijasini ko‘rsatish darajasidir. Shu jihatdan *agrotadbirkorlik samaradorligi* - bu qishloq xo‘jaligi va unga bog‘liq tadbirkorlik subyektlarining qayta ishlash, xizmat ko‘rsatish, iste’molchilarga yetkazib berish faoliyatida mavjud resurslarni optimal

[16] Carlota Perez Technological revolutions, paradigm shifts and socio-institutional change cerf, cambridge university, uk and spru, university of sussex, u.k. uk • northampton, ma, usa, 2004, pp. 217-242 https://carlotaperez.org/wp-content/downloads/publications/organizationalchange/TRs_TEP_shifts_and_SIF_-ch.pdf

[17] Crosson, P. & Anderson, J.R. 1995. Achieving a sustainable agricultural system in sub-Saharan Africa. Building Blocks for AFRICA 2025, Paper 2. Washington, DC, USA, World Bank https://carlotaperez.org/wp-content/downloads/publications/organizational-change/TRs_TEP_shifts_and_SIF_ch.pdf

[18] From the Green Revolution to the Gene Revolution: How will the Poor Fare? Prabhu Pingali and Terri Raney ESA Working Paper No. 05-09 November 2005. https://www.fao.org/4/af276e/af276e00.pdf

[19] Цифровое сельское хозяйство и инновации в области искусственного интеллекта. https://www.fao.org/innovation/digital-agriculture-and-ai-innovation/en

sarflash asosida yuqori qo‘shilgan qiymat, innovatsion o‘sish, ijtimoiy-ekologik barqarorlikka erishishdir.

1-jadval

Agrotadbirkorlikning nazariy-uslubiy yondashuvlari va mulliflik ta’rifi

Mualliflar	Yondashuvlar
D.Kahan	Agrobiznes - bu qishloq xo'jaligida ijtimoiy yoki iqtisodiy ehtiyojni qondirish maqsadida yangi loyihani ishlab chiqish uchun ijodkorlik va innovatsiyani qo'llash jarayoni
M.Jaleta, B.Gebremedhin	Qishloq xo'jaligi tadbirkorligi- bu qishloq xo'jaligi biznesini tashkil etish, boshqarish va tavakkalchilikni o'z zimmasiga olish jarayoni bo'lib, bozorlardan qiymat yaratish va daromad olishni o'z ichiga oladi
J.R.McFarlane	Qishloq xo'jaligi tadbirkorligi - bu qishloq xo'jaligi resurslaridan qiymat qo'shilgan mahsulotlar yoki xizmatlarni yaratish uchun innovatsion foydalanishni anglatadi, shu bilan birga bog'liq xatarlarni boshqaradi
A.V.Petrikov	Agrotadbirkorlik - agrar sohada bozor munosabatlariga asoslangan mustaqil, tashabbuskor va tavakkalchilikka asoslangan iqtisodiy faoliyat
V.A.Dobrinin	Agrotadbirkorlik - qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan ishlab chiqarish omillaridan foydalanish va bozor talablariga moslashuvchanlikni ta’minlash faoliyati
A.A.Samandarov	Agrotadbirkorlik - bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq tadbirkorlik faoliyati
Sh.N.Zaynutdinov	Agrotadbirkorlik - agrar sohada mulkchilikning turli shakllarini rivojlantirish va daromad olishga qaratilgan faoliyat
M.R.Boltaboev	Agrotadbirkorlik - qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish bo‘yicha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyati
B.B.Berkinov	Agrotadbirkorlik - qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga asoslangan faoliyat
M.Sh.Mamatov	Agrotadbirkorlik - agrosanoat majmuasida agrar xom-ashyoni ishlab chiqarish va iste’mol bozoriga yetkazishga qaratilgan faoliyat
A.A.Abdug‘aniev	Agrotadbirkorlik - qishloq xo‘jaligida innovatsion ishlanmalarni joriy etish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga asoslangan tadbirkorlik
U.P.Umurzakov	Agrotadbirkorlik - bozor munosabatlari asosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish va yuritishga qaratilgan faoliyat
A.A.Xamraev	Agrodbirkorlik - agrar sohada xususiy mulkchilikka asoslangan va daromad olishga yo‘naltirilgan faoliyat
Mualliflik ta’rifi	Agrotadbirkorlik – qishloq xo‘jaligi xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan tavakkalchilik, resurs taqsimoti nuqtai nazaridan innovatsiyalarni, institutsional muhitni, bozor talabini, diversifikatsiya va barqaror rivojlanishni birlashtirib harakatlanuvchi faoliyatdir. Agrotadbirkorlik samaradorligi esa ushbu faoliyatning natijasini ko‘rsatish darajasidir.
	Agrotadbirkorlik samaradorligi - bu qishloq xo‘jaligi va unga bog‘liq tadbirkorlik subyektlarining qayta ishlash, xizmat ko‘rsatish, iste’molchilarga yetkazib berish faoliyatida mavjud resurslarni optimal sarflash asosida yuqori qo‘shilgan qiymat, innovatsion o‘sish, ijtimoiy-ekologik barqarorlikka erishishdir.

Shuningdek, muallif tomonidan xorij mamlakatlarining agrotadbirkorlikni rivojlantirish modellari tarkibiy elementlari tahlil etlib, O‘zbekiston sharoitiga aynan mos gibrid model ishlab chiqish samarali ekanligi aniqlangan. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini qo‘llab-quvvatlash hamda AKIS (Agricultural Knowledge and Innovation Systems) tizimi asosida kadrlar malakasini oshirish va innovatsion infratuzilmani rivojlantirish amaliyotini qo‘llash, AQSh tajribasidan qishloq xo‘jaligi tavakkalchiligini boshqarish, shartnomaviy munosabatlarni tartibga solish hamda imtiyozli kreditlash mexanizmlarini ishlab chiqarish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlariga mos ravishda dinamik boshqarish, Isroilning esa suv resurslari tanqisligi sharoitida samarali foydalanishga asoslangan ilg‘or agrotexnologiyalar joriy etish hamda Gollandiya tajribasidan ilm-fan, amaliyot, texnologiya, biznes va logistika zanjirining o‘zaro integratsiyasiga asoslanish muhim.

Turkiyadan (TRASIM) davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan agrar sug‘urta tizimi hamda (IPARD) qishloq hududlarini rivojlantirish va agrar investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining uyg‘unlashuvini, Keniyadagi fermerlar reyestrini yuritish tizimidan qishloq xo‘jaligi subyektlari faoliyatini monitoring qilish va davlat qo‘llab-quvvatlash choralarini manzilli amalga oshirish tajribalarini o‘zlashtirish mumkin. Mazkur ilg‘or tajribalarni O‘zbekistonning tabiiy-iqlim sharoiti, resurs salohiyati va institutsional imkoniyatlaridan kelib chiqib moslashtirish agrotadbirkorlikni rivojlantirish hamda qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi

Dissertatsiyaning **“Hududlarda agrotadbirkorlikni rivojlantirishning ijtimoiy – iqtisodiy samaradorligni baholash uslubiyotini takomillashtirish”** bo‘limida mintaqalarda agrar tadbirkorlik faoliyatinining ijtimoiy – iqtisodiy samaradorligini baholashga uslubiy yondashuvlar tahlil qilinib, agrotadbirkorlik samaradorligini baholash mexanizmi ishlab chiqilishi asosida agrotadbirkorlikning barqaror rivojlanishiga makro-mikro darajada ichki va tashqi omillarni tashkil qiluvchi ko‘rsatkichlarning stimuliyator va distimulyator xususiyatlariga ko‘ra turkumlanishi hamda hududlarda agrotadbirkorlik samaradorligiga integral ta’siri baholangan. Shuningdek, hududlarda agrotadbirkorlik samaradorligining boshqaruv sifati, ishlab chiqarishni tashkil etish darajasi, omillar sarfi natijalari subindekslari tarkibiga kiruvchi ko‘rsatkichlarni normalashtirish asosida agrotadbirkorlikning mintaqaviy muvozanatini aniqlash usullarini takomillashtirish nuqtai nazaridan tadqiq qilingan.

Agrotadbirkorlikning hududiy samaradorligini aniqlashda statistik ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirishning an’anaviy usullaridan foydalanib, agrar sektorning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligiga ta’sir qiluvchi mikrodarajadagi ichki **(A)**, mikrodarajada tashqi ta’sir **(B)** qiluvchi to‘liq nazorat qilib bo‘lmaydigan omillarga ajratish mumkin. Makro darajajada agrotadbirkorlikning ichki **(S)** muhitga ta’sir qiluvchi birlamchi omil agrar sohani davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash hisoblanib, u subsidiya va kredit mexanizmlari, narxlar intervensiyasidan saqlanish, kooperatsiya va klasterlarni rag‘batlantirishdan iborat. Makrodarajada agrotadbirkorlik samaradorligiga ta’sir qiluvchi tashqi **(D)** muhitni tashkil qiluvchi omillar birinchidan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga tashqi talab va jahon narxlari, ikkinchidan, jahon savdo talablari va standartlari, uchinchidan, iqlim o‘zgarishlari va tabiiy xavf-xatarlar, qurg‘oqchilik, issiqlikning oshib borishi, to‘rtinchidan, transchegaraviy suv va boshqa tabiiy resurslar, beshinchidan, xalqaro moliya institutlari va texnologik o‘zgarishlar, investitsiya muhiti, texnologik transferlar tashkil qiladi.

2- jadval

Agrotadbirkorlikning ijtimoiy – iqtisodiy samaradorligiga ta’sir qiluvchi ichki va tashqi muhitning makro va mikro darajadagi omillar turkumi

Mikrodarajada		**Makrodarajada**	
Ichki (A)	**Tashqi (B)**	**Ichki (S)**	**Tashqi (D)**
1. Resurlar manbai 2. Mavjud texnologiya va innovatsiyaga sarflar 3. Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish 4. To‘lovga qobiliyatlilik 5. Mutaxassislar bilan ta’minlanganlik va mehnat unumdorligi. 6. Qishloq xo‘jaligi korxonalarining reali-	1. Xom ashyo yetkazib beruvchilar bozori 2. Iste’molchilar va qayta ishlash sanoati 3. Ishlab chiqaruvchilar soni va o‘rinbosar mahsulotlar 4. Xizmat ko‘rsatish turlari 5. Mahalliy institutlar	1. Agrotadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab – quvvatlash siyosati 2. Agrar sohada institutsional infratuzulma 3. Tarmoq infratuzilmasi va inson kapitali 4. Mamlakatning makroiqtisodiy o‘sish darajasi 5. Qishloq joylarda ijtimoiy siyosat va	1. Jahon narxlari va qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga talab 2. Jahonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozori normalari va narxlarning o‘zgarishi 3. Tabiiy xavf-xatarlar va iqlim o‘zgarishining ta’siri 4. Transchegaraviy suv va resurslar

zatsiya siyosati		demografik holat	5. Jahon moliyaviy insti-tutlari va texnologik o‘garishlar

Yuqorida tahlil etilgan ichki va tashqi muhitga ta’sir qiluvchi omillarni indikatorlar orqali ifodalash agrotadbirkorlik subyektlarining faoliyati natijalarini aniqlashtirish imkonini beradi. Biz qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligiga to‘g‘ri va teskari ta’siri ijobiy samara beradigan ko‘rsatkichlarni guruhlashni taklif qilamiz. Jumladan, stimulyator ko‘rsatkichlarining ortib borishi samaradorlikning oshishiga olib keladi. Distimulyator ko‘rsatkichlari, yani uning ma’lum miqdorda kamayishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. 2-jadvalda keltirilgan agrotadbirkorlik samaradorligi ko‘rsatkichlarini stimulyator va distimulyator mezonlari asosida 0-1 me’yor qoidalariga moslash orqali agrotadbirkorlikning ijtimoiy – iqtisodiy samaradorligining resurslar, ichki va tashqi muhit ta’siri, mintaqaviy xususiyatlarini aniqlashtirish mumkin. Buning uchun quyidagi bosqichlarni amalga oshirish lozim bo‘ladi: agrotadbirkorlikning mintaqaviy samaradorligiga ta’sir qiluvchi yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlar uchun stimulyator va distimulyator xususiyatlarini belgilash va sababini mantiqiy asoslash; 0-1 normalash formulasi asosida stimulyator I^s, distimulyator I^{ds} hamda minimal va maksimal qiymatini aniqlashning amaldagi yillik hududiy (1-99 persintel) variantini tanlash; har bir ko‘rsatkich uchun amaliy chegaralar belgilash asosida ularni 0-1 normaga moslash.

Ularni har bir yil (t) uchun (j) hudud bo‘yicha I^s stimulyator va I^{ds}distimulyator ko‘rsatkichlarni quyidagi formulalar orqali ifodalaymiz:

$$I^s = \frac{x_{jt} - \min(x_{jt})}{\max(x_{jt}) - \min(x_{jt})} \quad , \quad I^{ds} = \frac{\max(x_{jt}) - x_{jt}}{\max(x_{jt}) - \min(x_{jt})} \quad (1)$$

Bu yerda j – makrodarajada viloyat va tuman, mikrodarajada korxonalarni olish mumkin. $max(x_{jt}) = (a), min(x_{jt}) = (b)$ -hisoblanayotgan ko‘rsatkichlarning hududlar bo‘yicha maksimal va minimal qiymati.

3-jadval.

Agrotadbirkorlikning mintaqaviy rivojlanishiga ichki va tashqi ta’sir qiluvchi ko‘rsatkichlar turkumi[20]

Omillar	Ko‘rsatkichlar	I^s I^{ds}
Mikrodarajada ichki ta’sir qiluvchi ko‘rsatkichlar		
Resurslar samaradorligi	Suv unumdorligi $x = \frac{q-ishlab\ chiqarish\ \ hajmi.kg,T}{s-suv\ sarfi.m^3}$ Yer unumdorligi $x = \frac{q-ishlab\ chiqarish\ \ hajmi.kg,T}{A-er\ maydoni.ga}$	I^s
Texnologya va innovatsiya	Innoatsiya intensivligi$x = \frac{Y_{in}-innovatsiyaga\ xarajatlar,so'm}{R-jami\ daromadlar,so'm}$	I^s
Boshqaruv sifati	$x = \frac{Gm - Yalpi\ foyda,\ \ so'm}{Bs - boshqaruv\ xarajatlari,so'm}$	I^s
Moliyaviy barqarorlik	Likvidlik $x = \frac{CA-aylanma\ aktivlar}{CL-qisqa\ muddatli\ aktivlar}$ Qarz yuki $x = \frac{DB-debitor\ qarzlar}{Ass-aktivlar}$	I^s I^{ds}

[20] Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Eksportga yaroqlilik	Sertifikatlash ulushi $x = \frac{q_s - sertifikatlangan\ agrar\ mahsulotlar}{q_t - jami\ mahsulotlar}$ Narx indeksi $x = \frac{P_{sert} - sertifikatlangan\ agrar\ mahsulotlar\ narxi}{P_{agrar} - sertifikatlanmagan\ agrar\ mahsulotlar\ narxi}$	I^s I^{ds}
Mikrodarajada tashqi ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlar		
Ta'minotchilar bozori (urug'lik, o'g'it, yoqilg'i, ozuqa narxi)	Kirish narxi bosimi $x = \Delta P = \left(\frac{P_t - P_{t-1}}{P_{t-1}}\right)$	I^{ds}
Infratuzilma va logistika	Logistika xarajatlari $x = \frac{P_{sert} - sertifikatlangan\ agrar\ mahsulotlar\ narxi}{P_{agrar} - sertifikatlangan\ agrar\ mahsulotlar\ narxi}$ Saqlash ulushi $x = \frac{Cap - agrar\ mahsulotlarni\ saqlash\ hajmi,tonna}{P_{agrar} - agrar\ mahsulotlar\ hajmi,tonna}$	I^{ds} I^s
Mahalliy nazorat tamoyillari	Regulyator indeksi $x = \frac{N - tekshiruvlar\ soni}{Y - yil}$	I^{ds}
Makrodarajada ichki ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlar		
Davlatning agrar siyosati	Qo'llab – quvvatlash indeksi $x = \frac{Sya - Subsidiya}{A - er\ maydoni}$	I^s
Makroiqtisodiy barqarorlik	Infelyatsiya barqarorligi $x = \pi = \left(\frac{P_t - P_{t-1}}{P_{t-1}}\right)$	I^{ds}
Suv va yer resurslari munosabatlari	Suv ta'minoti barqarorligi $x = \frac{Vas - mavsumda\ suv\ bo'lgan\ runlar}{V_d - mavsumda\ sug'orish\ kunlari}$ Yer huquqi indeksi $x = \frac{Cas - er\ huquqi\ bo'cha\ nizolar}{A}$	I^s I^{ds}
Agrokonsalting xizmatlari va kadrlar samarasi	Agrokonsalting qamrovi $x = \frac{Fs - hizmatdan\ foydalangan\ fermerlar}{F_t - jami\ fermerlar}$ Agrokonsalting xizmatlari intensivligi $x = \frac{Hs - hizmatlar\ miqdori}{W - jami\ fermerlar}$	I^s
Makrodarajada tashqi ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlar		
Tashqi bozor va jahon narxi	Narxlar shoki $x = \Delta P_w = {P_{wt} - P_{wt-1}}/{P_{wt-1}}$ Savdo nisbati $x = {P_{ex}}/{P_M}$	I^{ds} I^s
Eksport ulushi	Muvofiqlik ulushi $x = \frac{E_{st} - standartga\ mos\ mah}{E_{total} - umumiy\ mahsulot}$ Rad etish indeksi $x = \frac{R_{ex} - rad\ etilgan\ mah}{E_{total} - umumiy\ mahsulot}$	I^s I^{ds}
Iqlim o'zgarishlari va moslashuv	Qurg'oqchilik qamrovi $x = \frac{Q_h - qirg'oqchilk\ hajmi}{Q_t - qishloq\ xo'jalik\ yerlari}$ Moslashuv indeksi $x = \frac{T_s - tomchilatib\ so'g'orish\ hajmi}{Q_t - so'g'oriladigan\ yerlari}$	I^{ds} I^s

Bu ko'rsatkichlarni hisoblash natijalarini quyidagi $I^{s,ds}$ $(0 - 1.0, \dots 100$ mezon asosida baholash mumkin. Uni amaliyotda qo'llash qulay bo'lgan mezon 0-1 oraliqda keltirilish maqsadga muvofiq. Stimulyator va distimulyator ko'rsatkichlarini 0-1 mezonlarga moslashtirish maqsadida ikki chegarali "Yaxshi - yomon" hudud sxemasi aniqlashtiriladi. Buning uchun $min(x_{jt}) = a_1, max(x_{jt}) = b_{99}$ ko'rinishida yozib olib outlier ta'sirini yumshatish talab etiladi.

4-jadval

Qashqadaryo viloyatida 2025 yilad bir – birlik suv va yer resurslari hisobiga olingan daromad[21]

Tartib raqam	Hududlar	Bir gektar yerdan olingan daromad (x)	I^s	Hududlar	Bir metr kub suv hisobiga olingan daromad(x)	I^{ds}
1	Dehqonobod	7415,10	0,000	Mirishkor	4503,9	0,000
2	Mirishkor	8382,65	0,016	Koson	8624,8	0,079
3	G'uzor	13028,46	0,115	Kasbi	9092,8	0,089
4	Ko'kdala	16882,39	0,197	Qarshi	9248,1	0,092

[21] Qashqadaryo viloyati statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida ishlab chiqildi

5	Nishon	24185,77	0,352	Muborak	13023,7	0,171
6	Koson	28057,08	0,435	Guzor	18006,3	0,274
7	Qamashi	31480,37	0,508	Shaxrisabz	21690,0	0,350
8	Shahrisabz t	32839,87	0,537	Yakkabog	22411,6	0,365
9	Yakkabog‘	33319,54	0,547	Chirokchi	23777,8	0,393
10	Kitob	36579,93	0,616	Qamashi	25556,4	0,430
11	Chiroqchi	38489,02	0,657	Kukdala	30543,2	0,534
12	Qarshi	45308,84	0,802	Kitob	43148,1	0,795
13	Muborak	11856,98	0,090	Nishon	8814,1	0,083
14	Kasbi	58412,36	1,081	Dexqonobod	57080,5	1,084
P(1)	R	7415,23		r	4504,07	
P(99)	R	11869,85		r	43161,00	
a		7628,0			4792,4	
b		54612,3			53040,1	
$\boldsymbol{I_{as}}$		1,1	0,43	$\boldsymbol{I_{ads}}$	1,1	0,339

Bunday hisoblash berilgan ko‘rsatkichlarning real ekstrimumidan kichik bo‘lsa-da, chetga chiqishlarni qisqartiradi[22]. U bir necha bosqichda amalga oshirish mumkin: birirnchidan, 0-1 normaga keltrish uchun 3–jadvaldagi ko‘rsatkichlarni ifodalovchi amaliy ma’lumotlar belgilab olinadi, ikkinchidan (1) formula asosida stimulyator ($I^s = \frac{x-a}{b-a}$) va distimulyator ($I^{ds} = \frac{b-x}{b-a}$)ning minimal a maksimal b ko‘rsatkishlarini aniqlab, amaldagi yillik hududiy (1-99 persintel) variantlarini tanlaymiz. Uni quyidagicha ifodalaymiz: $P(1) = 0{,}1$, $P(99) = 1$, $\boldsymbol{I_{as}} = \frac{x-a}{b-a}$, $0.1 < \boldsymbol{I_{as}} < 1$. 4-jadvalda Qashqadaryo viloyatining 14 ta tumani (n) bo‘yicha ko‘rsatkichlar keltirilgan.

4-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, bir gektar yerdan olingan daromad bo‘yicha Ko‘kdala tumani 5-reytingni egallagan bo‘lsa, bir m^3suv hisobiga olingan daromad bo‘yicha 12-o‘rinni egallaydi. Bir gektar yerdan olingan daromadning P(1-99) persintelni metodikasidan foydalanib hisoblanganda P(1) = 7415,2, P(99)= 45321,7, Bir m^3suv hisobiga olingan daromad esa P(1) = 4504,07, P(99)= 43161,0 ni tashkil qilgan. $min(x_{jt}) = (a), max(x_{jt}) = (b)$ miqdorlarni aniqlanganda bir gektar yerdan olingan daromadning minimal $a = 7628$ maksimal $b = 54612{,}3$ so‘mni, o‘rtacha stimulyator ko‘rsatkichi $I_{as} = 0{,}43$ qiymatni tashkil qilgan. Bir m^3suv hisobiga olingan daromad minimal $a = 4792{,}4$ maksimal $b = 53040{,}1$ so‘mni, distimulyator $I_{ads} = 0{,}334$ qiymatni tashkil qilgan.

Ushbu hisob kitoblar 4–jadvalda keltirilgan ko‘rsatkichlarning $\boldsymbol{I^s}$ stimulyator va $\boldsymbol{I^{ds}}$ distimulyator darajasini viloyat tumanlari bo‘yicha aniqlanib, bu hududlar agrotadbirkorlik samaradorligining xususiy ko‘rinishini ifodalaydi. Uning umumiy ko‘ratkichini a< $\boldsymbol{I_{as}}$, $(\boldsymbol{I_{ads}}) < b$ mezonga ko‘ra tumanlarning chiziqli o‘zgarishining o‘rtachasini aniqlash orqali ifodalash mumkin. Uni quyidagicha ifodalaymiz:

$$I_{as} = \frac{1}{n}\sum_b^a \boldsymbol{I_{jh}^s} = 0{,}43, \quad I_{ads} = \frac{1}{n}\sum_b^a \boldsymbol{I_{jh}^{ds}} = 0{,}34 \quad (2)$$

Bu yerda: n – hududlar soni.

[22] oecd.org

$\sum_b^a \boldsymbol{I_{jh}^S}$ – j – ko‘rsatkichning h - hudud bo‘yicha a va b oraliqdagi stimulyator ko‘rsatkichi.

$\sum_b^a \boldsymbol{I_{jh}^{ds}}$ – j – ko‘rsatkichning h - hudud bo‘yicha a va b oraliqdagi distimulyator ko‘rsatkichi.

Bu samaradorlik ko‘rsatkichlarining ortib borishi ijobiy ta’sir qiluvchi I_{as} stimulyator ko‘rsatkichlarning o‘rtcha o‘zgarishi va kamayib borishi ijobiy ta’sir qiluvchi I_{ads} stimulyator ko‘rsatkichlarning o‘rtacha o‘zgarishining integral ko‘rsatkichi orqali hudud agrotadbirkorlik samaradorligi I ning umumiy o‘sishini ifodalash mumkin:

$$I = I_{as}^{0,5} * I_{ads}^{0,5} = 0.43^{0,5} * 0.34^{0,5} = 0,38 \quad (3)$$

Agrar sohada qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar turlicha natija berganligi sababli agrotadbirkorlikning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini ikkita ko‘rsatkich bilan aniqlab bo‘lmaydi. Agrotadbirkorlik samaradorligiga ta’sir qiluvchi ko‘rsatkichlarning mazmuniga ko‘ra stimulyator va distimulyator ko‘rsatkichlarga ajratib agrar sohada umumiy rivojlanishni aniqlash mumkin. Ammo hudud agrotadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy–iqtisodiy samaradorligini aniqlab bo‘lmaydi. Shu bois agrotadbirkorlikning ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini ifodalovchi subindekslarni aniqlashtirish lozim.

Agrar samaradorlikni ta’minlovchi muvozanatni “Resurs-ishlab chiqarish–samaradorlik” modeli asosida talqin qilish hamda agrotadbirkorlik faoliyatining natijalarini baholash bizning fikrimizcha, uchta subindeks asosida, ya’ni, B-boshqaruv sifatini ifodalovchi subindeks, I-ishlab chiqarishni tashkil etish darajasi bo‘yicha subindeks, O-omillar sarfi natijalarini ifodalovchi subindekslaridan foydalanish zarur (5-jadval).

Ushbu subindekslarni tashkil qiluvchi ko‘rsatkichlarning ma’lum bir davrda agrotadbirkorlikning ijtimoiy – iqtisodiy jihatlarini ifodalovchi samaradorligining o‘zgarishi asosida hududning imkoniyatlariga ko‘ra joriy holat muvozanatini aniqlash mumkin.

5 -jadval.

Agrar sohada mintaqaviy muvozanatni ta’minlovchi subindekslar[23]

Subindekslar	**Mazmuni**	**Tavsiflovchi ko‘rsatkichlar**
B- Boshqaruv sifati	Texnik-texnologik, innovatsion o‘zgarishlarning boshqaruv sifatini ifodalashga ta’siri	1. Suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish,ga 2. Mintaqada qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishida innovatsion mahsulotlari hajmi, so‘m 3. Texnika bilan ta’minlanish darajasi, % 4. Texnikalarning yangilanish koeffitsienti
I-Ishlab chiqarishni tashkil etish darajasi	Mehnat unumdorligi, vaqtdan samarali foydalanish, tashkiliy mutanosiblik	1. Yer unumdorligi 2. Mehnat unumdorligi; 3. Bir birlik mahsulotga mehnat sarfi
O – omillar sarfi natijalari	Yuqori qo‘shilgan qiymat Qayta ishlash Eksport ulushi	1. Mintaqada qishloq xo‘jaligi qo‘shilgan qiymati 2. Qayta ishlangan mahsulot 3. Tovar mahsulotning eksporti 4. Klasterlashuv darajasi

[23] Tahllilar asosida muallif tomonidan tuzilgan

Qashqadaryo mintaqasida B-agrotadbirkorlik faoliyati samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarning 2010-2025 yillardagi indikatorlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2025-yilda mintaqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlar tarkibida innovatsiya 2010-yilga nisbatan 34,7 martaga , hududda suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish hajmi 6,8 martaga, texnikalar bilan ta’minlanish darajasi 48,9 foizga oshgan.

6 – jadval.

Qashqadaryo viloyatida 2010-2025 yillarda agrotadbirkorlik samaradorligi mintaqaviy xususiyatlarini ifodalovchi ko‘rsatkichlarning max va min qiymatlari

Ko‘rsatkichlar		r	min	R	max
B- Boshqaruv sifati	B_1 Mintaqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarida innovatsion mahsulotlar mlrd.so‘m	522,15	549,43	17307,13	17419,4
	B_2 Suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish,ga	2116,07	2086,03	38471,05	38784,19
	B_3 Texnika bilan ta’minlanish darajasi,%	49,05	49,12	79,05	79,08
	B_4 Texnikalarning yangilanish koeffitsienti	0,17	0,09	18,95	19,33
I-Ishlab chiqarishni tashkil etish darajasi	I_1 Bir gektar yerga to‘g‘ri keladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi, ming so‘m	1182,62	1576,51	19035,03	19107,92
	I_2 Bir kishi hisobiga yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi, ming so‘m	1011,46	1247,19	12185,73	13023,20
	I_3 Bir birlik qishloq xo‘jaligi mahsulot hisobiga sarflangan mehnat	5,24	4,74	85,04	86,85
O – omillar sarfi natijalari	O_1 Tadbirkorlikda qishloq xo‘jaligi mahsuloti qo‘shilgan qiymati, mlrd. so‘m	2886,55	3698,24	42749,85	46791,69
	O_2 Qishloq xo‘jaligi mahsuloti eksporti qiymat ko‘rinishida, mlrd. so‘m	1578,35	1592,00	49081,75	62928,48
	O_3 Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining qayta ishlanishi qiymat ko‘rinishida, mlrd. so‘m	1167,35	1200,81	22687,45	26920,38

I-Ishlab chiqarishni tashkil etish darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar bir gektar yerdan olingan daromad, 2025-yilda 2010-yilga nisbatan 18,1 martaga oshgan, bir ishchi hisobiga yetishtirilgan bir birlik qishloq xo‘jaligi mahsuloti qiymati 13,2 martaga ortgan, bir birlik qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirish uchun mehnat sarfi 21 martaga kamaygan.

O-Omillar sarfi natijalarini ifodalovchi ko‘rsatkichlardan kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilan qo‘shilgan qiymati hajmi 2025-yilda 2010-yilga nisbatan 16,5 martaga qayta ishlangan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 27,5 martaga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eksporti hajmi 42,8 martaga o‘sgan.

Fikrimizcha, yuqoridagi tartibda tahlil agrar samaradorlikni faqatgina ko‘rsatkichlar bo‘yicha tavsiflaydi. Ammo agrar sohada resurslar-ishlab chiqarish va natijaviy ko‘rsatkichni kompleks ifodalovchi muvozanatli samaradorlikni aniqlashtirish lozim.

6–jadvalda keltirilgan max va min qiymatlari asosida ko‘rsatkichlarni z_{ij} orqali 0-1 oraliqga keltirishimiz lozim. Jumladan, B- Boshqaruv sifati blogining $(B1)$ ko‘rsatkichi bo‘yicha normalashtiramiz:

$$(B1).\ z_{qahj2025} = \frac{x - x_i^{min}}{x_i^{max} - x_i^{min}} = \frac{18156.9 - 549.43}{17419.4 - 549.43} = 1.044$$

Bu qiymat mintaqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarida innovatsion mahsulotlar hajmini ifodalovchi miqdor ko‘rsatkichni 0-1 oraliqdagi agregat ko‘rsatkichga aylantirib, uning ortib borishi agrotadbirkorlik samaradorligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

7 – jadval.

Qashqadaryo viloyatida 2010-2025 yillarda (z_{ij}) bloklar bo‘yicha normalashtirilgan ko‘rsatkichlar qiymati

Yillar	B				I			O		
	$\mathbf{B_1}$	B_2	$\mathbf{B_3}$	$\mathbf{B_4}$	I_1	I_2	I_3	O_1	O_2	O_3
2010	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000
2011	0,009	0,035	0,069	0,115	0,014	0,024	0,2029	0,015	0,000	0,0024
2012	0,023	0,001	0,099	0,042	0,043	0,057	0,4278	0,043	0,001	0,0093
2013	0,043	0,009	0,106	0,006	0,066	0,081	0,4875	0,065	0,001	0,0276
2014	0,069	0,015	0,143	0,052	0,098	0,115	0,5960	0,096	0,006	0,0523
2015	0,105	0,073	0,326	0,281	0,133	0,149	0,6793	0,129	0,043	0,0750
2016	0,152	0,122	0,333	0,006	0,176	0,193	0,7444	0,170	0,187	0,0908
2017	0,217	0,432	0,246	0,005	0,262	0,281	0,8183	0,255	0,271	0,1550
2018	0,304	0,394	0,280	0,047	0,332	0,349	0,8587	0,322	0,402	0,1576
2019	0,420	0,239	0,356	0,115	0,398	0,410	0,8853	0,386	0,346	0,2397
2020	0,536	0,0	0,283	0,000	0,492	0,499	0,9133	0,476	0,892	0,2851
2021	0,644	1,172	0,320	0,052	0,603	0,599	0,9228	0,586	0,667	0,3453
2022	0,738	0,937	0,343	0,032	0,700	0,680	0,9368	0,676	0,647	0,4250
2023	0,928	1,000	0,366	0,032	0,852	0,811	0,9636	0,825	0,719	0,5502
2024	0,976	0,922	0,503	0,208	0,995	0,928	0,9825	0,906	0,774	0,8348
2025	*1,044*	0,654	0,557	0,078	1,134	1,025	*0,9957*	1,016	1,075	1,2006
O‘rtacha qiymat Z	0,387	0,375	0,271	0,066	0,394	0,388	0,713	0,373	0,377	0,278

Bunday holatda agar $x_i^{min} < \boldsymbol{z_{ij}} < x_i^{max}$ bo‘lsa, 0 va 1 oralig‘ida samaradorlik chiziqli o‘sadi. Ammo ayrim holatlarda ko‘rsatkichlarning kamayishi agrotadbirkorlik samaradorligining oshishiga olib keladi. *(I_3)*- bir birlik qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirish uchun mehnat sarfi kamayib borishi agrar samaradorlikni oshiradi. 7 – jadvalda ushbu ko‘rsatkichning max va min qiymatlari berilgan. Bunday holda samaradorlik $x_i^{min} < \boldsymbol{z_{ij}} < x_i^{max}$ 0-1 oraliqda chiziqli kamayib boradi. Har bir subindeks ko‘rsatkichlari bo‘yicha z_{ij} ni hisolab chiqib, subindeksning umumiy ko‘rsatkichini aniqlashtirib olamiz. 7 – jadvalda keltirilgan ma’lumotlar 2010-2025 yillar davomidagi agrar sohada amalga oshirilgan ishlar natijalarni ifodalaydi. Ushbu ko‘rsatkichlarni turli xil o‘lchov birligida ifodalanganligi sababli ularni bir xil mezonga keltirishda z_{ij}normalashdan foydalanildi.

Jumldan, *(I_3)*- bir birlik qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirish uchun mehnat sarfi 2010-2025 yillardagi max ko‘rsatkichi 86,85 birlikni va min ko‘rsatkichi 4,74 qiymatlarni tashkil qilgan. 2025 yil uchun z_{ij} – normalashtirilgan I blokning I_3- ko‘rsatkichini hisoblaganimizda $z_{ij} = 0{,}9957$ ni tashkil qilib, 2010-2025 yillar oralig‘ida o‘rtacha qiymat 0,713 dan iborat bo‘lgan. Qolgan bloklar va ko‘rsatkichlarni 7- jadvalda to‘liq hisoblanib, unda agrotadbirkorlik faoliyati samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar turli o‘lchamlarini agregat ko‘rsatkichga aylantirilgan qiymatlari keltirilgan. Ushbu natijalar hudud agrar samaradorligi ko‘rsatkichlarining alohida–alohida xususiyatlarini ifodalaydi. Ammo agrotadbirkorlikning umumiy samaradorlik ko‘rsatkichini kompeks baholash imkoniyatini bermaydi. Unga 7– jadvalda bir xillikka keltirilgan ko‘rsatkichlarni bir-biri bilan taqqoslash asosida bunga erishish mumkin. Buning uchun blok ko‘rsatkichlarini birlashtirib har bir blok bo‘yicha subindekslarni hisoblash lozim bo‘ladi. Uni quyidagicha hisoblashni tavsiya qilamiz:

$$B = \sum_{b=1}^{n} a\, z_b\ ,\ I = \sum_{i=1}^{n} a\, z_i\ ,\ O = \sum_{o=1}^{n} a\, z_o \quad (4)$$

4-ifodani 7- jadval ma’lumotlari asosida hudud agrar sohasining tadbirkorlik faoliyatini bir ko‘rsatkich bilan ifodalash va uning mezonlarini belgilash lozim bo‘ladi. Hisoblangan subindekslar asosida hududlararo agrar muvozanat qiymatini aniqlash mumkin. Uning umumiy ko‘rinishini quyida formula bilan ifodalaymiz:

$$ASB = \sqrt[n]{B * I * O} * \left(1 - (max(BIO) - min(BIO))\right) (5)$$

$$ASB = \sqrt[3]{0.28 * 0.66 * 0.31} * \left(1 - (0.66 - 0.28)\right) = 0{,}15$$

Har bir blok ko‘rsatkichlarini normalash asosida agregatlash vaznlar asosida subindekslarni hisoblash imkonini beradi. Hududiy agrar tadbirkorlik samaradorligi qiymati samaradorlik potensialini va bloklar o‘rtasidagi o‘zaro nomutanosiblikning muvozanat koeffitsientini ko‘paytirish asosida aniqlab, agrar sohanining o‘sish sur’atini ifodalash bilan birga ko‘rsatkichlar ta’sirida erishilgan samaradorlikning qaysi blok hisobiga oshayotganligi va qaysi blok cheklovchi to‘siq ekanligini ham ifodalash mumkin.

8-jadval

Agrotadbirkorlik samaradorligining hududiy muvozanat qiymati[24]

<table>
<tr><th rowspan="2">Ko‘rsatkichlar</th><th colspan="4">B</th><th colspan="3">I</th><th colspan="3">O</th></tr>
<tr><th>B_1</th><th>B_2</th><th>B_3</th><th>B_4</th><th>I_1</th><th>I_2</th><th>I_3</th><th>O_1</th><th>O_2</th><th>O_3</th></tr>
<tr><td>O‘rtacha qiymat</td><td>0,39</td><td>0,38</td><td>0,27</td><td>0,07</td><td>0,39</td><td>0,38</td><td>0,71</td><td>0,37</td><td>0,37</td><td>0,27</td></tr>
<tr><td>a- vazn ulushi[25]</td><td>0,25</td><td>0,25</td><td>0,25</td><td>0,25</td><td>0,45</td><td>0,45</td><td>0,45</td><td>0,30</td><td>0,30</td><td>0,30</td></tr>
<tr><td>z_{ij}</td><td>0,10</td><td>0,10</td><td>0,07</td><td>0,02</td><td>0,17</td><td>0,17</td><td>0,32</td><td>0,11</td><td>0,11</td><td>0,08</td></tr>
<tr><td>$\sum$</td><td colspan="4">$B = \sum_{b=1}^{n} a\, z_b$ =0,28</td><td colspan="3">$I = \sum_{i=1}^{n} a\, z_i$ = 0,66</td><td colspan="3">$O = \sum_{o=1}^{n} a\, z_o$ = 0,31</td></tr>
<tr><td rowspan="2">Agrotadbirkorlik hududiy potensiali</td><td colspan="10">$Pt = \sqrt[3]{B * I * O} = \sqrt[3]{0.28 * 0.66 * 0.31} = 0.24$</td></tr>
<tr><td colspan="10">Bu ko‘rsatkich omillar guruhidan birining qiymati past bo‘lsa umumiy potensial kamayadi, to‘liq potensialdan foydalanilsa $Pt = 1$ ga teng bo‘ladi.</td></tr>
<tr><td rowspan="2">Potensial muvozanat koeffitsienti</td><td colspan="10">$K = 1 - \mathrm{L} = 1 - 0.36 = 0.62$
$L = (max(BIO) - min(BIO)) = (0.66 - 0.28) = 0.38$</td></tr>
<tr><td colspan="10">K =1 bo‘lsa, uchta blok ham mutanosib
$K = 0$ bo‘lsa, bloklar o‘rtasida katta nomutanosiblik mavjud.
$L \leq 0.15$- yaxshi muvozanat, $0.15 < L \leq 0.30$ bo‘lsa o‘rtacha nomutanosiblik
$L \geq 0.30$ katta nomutanosiblik</td></tr>
<tr><td rowspan="2">Hududlararo agrar muvozanat qiymati</td><td colspan="10">$ASB = Pt * (1 - L) = 0.24 * 0.62 = 0.15$</td></tr>
<tr><td colspan="10">0.7-1.0 – barqaror muvozanat, 0.5-0.69- o‘rtacha muvozanat, ayrim bloklarda cheklovlar mavjud, 0.3-0.49 tizimli nomutanosiblik mavjud, 0-0.29 samaradorlikni ta’minlovchi bloklar ta’siri yetarli emas</td></tr>
<tr><td rowspan="3">Bloklar cheklovi</td><td colspan="10">$M = {B + I + O}/{3} = (0.28 + 0.66 + 0.31) = 0.42$</td></tr>
<tr><td colspan="4">$\Delta B = M - B =$
$0.42 - 0.28 = 0.14$</td><td colspan="3">$\Delta I = M - I =$
$0.66 - 0.42 = 0{,}24$</td><td colspan="3">$\Delta O = M - B =$
$0.37 - 0.34 = 0.11$</td></tr>
<tr><td colspan="10">$\Delta B > M$, bo‘lsa boshqaruv sifati yaxshi emas, $\Delta I > M$,bo‘lsa, ishlab chiqarishni tashkil etish darajasi past, $\Delta O > M$ bo‘lsa tarkibiy o‘zgarishlar ta’siri yaxshi emas</td></tr>
</table>

Dissertatsiyaning “**Agrotadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy zonalar bo‘yicha rivojlanish holati va omillar tahlili**” nomli uchinchi bo‘limida O‘zbekiston respublikasi iqtisodiy zonalarida agrotadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari taqqoslama tahlil qilinib, 2010-2025 yillardagi holat bayon qilingan.

[24] Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

[25]Analitik ierarxiya usuli asosida hisoblangan. (Saaty, Thomas L. The Analytic Hierarchy Process: Planning, Priority Setting, Resource Allocation. New York; London: McGraw-Hill International Book Co., 1980. xiii, 287 б)

Shuningdek, Qashqadaryo viloyati va Janubiy iqtisodiy tuman ko‘rsatkichlarining o‘rni va ahamiyati ochib berilib, viloyatning hududiy xususiyatlari iqtisodiy-geografik nuqtai-nazaridan tahlil etilgan. Tahlillar asosida agrotadbirkorlikning rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha hududlarni segmentlash amalga oshirilgan.

Qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish, qo‘shimcha imkoniyatlarni ishga tushirish uchun tadbirkorlik qobiliyati ko‘rsatkichlari tahlili asosida hududlarni bir-biriga yaqin ko‘rsatkichlar bo‘yicha agrotadbirkorlik omillari mazmuni va hududlardagi xususiyatlariga ko‘ra, Qashqadaryo viloyatining tabiiy-iqtisodiy, ma’muriy–hudidiy bo‘linishini hisobga olgan holda to‘rt segmentga ajratish maqsadga muvofiq. Shu asosda 9–jadvalda keltirilgan $R_1, R_2, \dots R_8$ ko‘rsatkichlar bo‘yicha $\boldsymbol{S_1}, \dots \boldsymbol{S_4}$ segmentlarga ajratildi.

9-jadval

Hududlarning agrotadbirkorlik xususiyatlariga bo‘yicha segmenlash[26]

Seg-ment	Agroiqtisodiy zona nomi	Nisbiy ustun ko‘rsatkich lar majmui	Mazmuni	Hududlar-ni tanlash mezoni
$\boldsymbol{S_1}$	Sug‘oriladigan intensiv tadbirkorlik zonasi	R_1, R_2, R_6	R_1tumanlarning sug‘oriladigan yer maydonlari ulushi, bir gektar yerga to‘g‘ri keladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari qiymati, bir gektar yerga to‘g‘ri keladigan investitsiyalar yuqori	$S_1 \to max$
$\boldsymbol{S_2}$	Mehnat resurslariga tayangan diversifikatsiyalash gan tadbirkorlik zonasi	R_3, R_4, R_5	tumanlarda qishloq xo‘jaligida 100 gektar yerga to‘g‘ri keladigan qishloq xo‘jaligida bandlar, tadbirkorlikning qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdagi va xizmat ko‘rsatishdagi ulushi	$S_2 \to max$
$\boldsymbol{S_3}$	Investitsiyalar va eksportga yo‘naltirilgan zona	R_2, R_6, R_7	tumanlarning bir gektar yerga to‘g‘ri keladigan investitsiyalar va kichik tadbirkorlikning eksportdagi ulushi bo‘yicha	$S_3 \to max$
$\boldsymbol{S_4}$	Qo‘shilgan qiymat zanjiriga tayangan qayta ishlash tadbirkorligi zonasi	R_2, R_4, R_8	tumanlarning bir gektar yerga to‘g‘ri keladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tadbirkorlikning qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdagi va qayta ishlashdagi ulushi	$S_4 \to max$

Sug‘oriladigan intensiv tadbirkorlik, mehnat resurslariga tayangan diversifikatsiyalashgan tadbirkorlik, investitsiyalar va eksportga yo‘naltirilgan, qo‘shilgan qiymat zanjiriga tayangan qayta ishlash tadbirkorligi segmentlari bo‘yicha tumanlarning o‘rtacha $R_1, R_2, \dots R_8$ ko‘rsatkichlar bo‘yicha reyting natijalarini hisoblab chiqamiz. Bu yerda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi va tadbirkorligi bo‘yicha samaradorlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlarning muhimligi bo‘yicha $\omega_1 - \omega_8$ vazn[27] ulushlarini qo‘yamiz. Ularni quyidagicha ifodalanadi:

$$\boldsymbol{S_1} = 0.4\,R_1 + 0.3\,R_2 + 0.3R_6\ ,\ \boldsymbol{S_2} = 0.4\,R_3 + 0.3\,R_4 + 0.3\,R_5$$
$$\boldsymbol{S_3} = 0.4\,R_2 + 0.3\,R_6 + 0.3\,R_7,\ \boldsymbol{S_4} = 0.4\,R_2 + 0.3\,R_4 + 0.3\,R_8 \qquad (6)$$

[26] Muallif tomonidan ishlab chiqildi

[27] Analitik ierarxiya usuli asosida hisoblangan

10-jadval

Qashqadaryo viloyatining 2010-2025 yillardagi $R_1 - R_8$ ko‘rsatkichlar bo‘yicha tumanlar reytingi

Hududlar	R_1	R_2	R_3	R_4	R_5	R_6	R_7	R_8
G‘uzor	0,607	0,060	0,442	0,517	0,500	0,083	0,772	0,565
Dehqonobod	0,000	0,039	0,445	0,586	0,522	0,090	0,487	0,344
Qamashi	0,620	0,259	0,605	0,537	0,000	0,225	0,529	0,445
Qarshi	0,423	0,643	0,618	0,398	0,484	0,365	0,170	0,521
Koson	0,706	0,357	0,361	0,286	0,456	0,303	0,657	0,411
Kitob	0,183	0,431	0,852	0,526	0,825	0,037	1,000	0,606
Mirishokr	0,524	0,042	0,174	0,355	0,105	0,070	0,794	0,667
Muborak	0,320	0,000	0,000	0,467	0,613	0,000	0,742	0,396
Nishon	0,510	0,599	0,128	0,000	0,439	0,497	0,827	0,000
Kasbi	0,432	1,000	0,466	0,112	0,182	0,682	0,558	0,093
Chiroqchi	1,000	0,293	0,489	0,600	0,139	0,694	0,336	0,307
Shahrisabz t	0,000	0,306	1,000	0,479	0,420	0,144	0,743	0,452
Yakkabog‘	0,312	0,447	0,932	0,459	0,446	0,343	0,744	0,271
Ko‘kdala	0,844	0,458	0,248	0,978	1,000	1,000	0,000	1,000

10-jadval keltirilgan reyting ko‘rsatkichlari asosida $S_n \rightarrow max$ mezoni asosida tumanlarning qaysi segmentiga moyilligini aniqlaymiz. Jumladan, $\boldsymbol{S_1}$ sug‘oriladigan intensiv tadbirkorlik segmenti bo‘lib, 9-jadvalga ko‘ra Qashqadaryo viloyati tumanlarining sug‘oriladigan yer maydonlari, bir gektar yerga to‘g‘ri keladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, bir gektar yerga to‘g‘ri keladigan investitsiyalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlardan iborat.

11-jadval

Qashqadaryo viloyatida segmentlar bo‘yicha tumanlarning reyting ko‘rsatkichlari asosida segmentlarga ajratish

Hududlar	S_1	S_2	S_3	S_4	$S_n \rightarrow max$	
Guzor	0,286	0,482	0,280	0,349	0,482	$\boldsymbol{S_2}$
Dehqonobod	0,039	0,510	0,189	0,295	0,510	$\boldsymbol{S_2}$
Qamashi	0,393	0,403	0,330	0,398	0,403	$\boldsymbol{S_2}$
Qarshi	0,472	0,512	0,418	0,533	0,533	$\boldsymbol{S_4}$
Koson	0,481	0,367	0,431	0,352	0,481	S_1
Kitob	0,214	0,746	0,483	0,512	0,746	$\boldsymbol{S_2}$
Mirishokr	0,243	0,208	0,276	0,324	0,324	$\boldsymbol{S_4}$
Muborak	0,128	0,324	0,223	0,259	0,324	$\boldsymbol{S_2}$
Nishon	0,533	0,183	0,637	0,240	0,637	$\boldsymbol{S_1}$
Kasbi	0,677	0,275	0,772	0,461	0,772	$\boldsymbol{S_3}$
Chiroqchi	0,696	0,417	0,426	0,389	0,696	$\boldsymbol{S_3}$
Shahrisabz t	0,135	0,670	0,389	0,402	0,670	$\boldsymbol{S_2}$
Yakkabog‘	0,362	0,644	0,505	0,398	0,644	$\boldsymbol{S_2}$
Ko‘kdala	0,775	0,693	0,483	0,776	0,776	$\boldsymbol{S_4}$

Bu ko‘rsatkichlardan $\boldsymbol{S_1}$ segmentning tayanch ko‘rsatkichi bo‘lganligi sababli $\omega_1 = 0.4$ deb olib, qolgan ko‘rsatkichlarni 0,3 birlikda belgilaymiz. Misol tariqasida G‘uzor tumani S_1 zonaning qiymatini aniqlaymiz:

$$S_1 = 0.4 * 0.607 + 0.3 * 0.442 + 0.3 * 0.083 = 0.286$$

12-jadval

Qashqadaryo viloyatida 2010-2025 yillardagi agrosamaradorlik ko‘rsatkichlarining dinamikasi bo‘yicha aniqlangan reyting asosida ajratilgan segmentlarga kiruvchi tumanlar

Segment	**Agroiqtisodiy zona nomi**	Nisbiy ustun ko‘rsatkichlar majmui	Zonaga kiruvchi tumanlar
S_1	Sug‘oriladigan intensiv tadbirkorlik zonasi	R_1, R_2, R_6	Koson, Nishon
S_2	Mehnat resurslariga tayangan dversifikatsiyalashgan tadbirkorlik zonasi	R_3, R_4, R_5	G‘uzor, Dehqonobod, Qamashi, Kitob, Muborak, Shahrisabz t., Yakkabog‘
S_3	Investitsiyalar va eksportga yo‘naltirilgan zona	R_2, R_6, R_7	Kasbi, Chiroqchi
S_4	Qo‘shilgan qiymat zanjiriga tayangan qayta ishlash tadbirkorligi zonasi	R_2, R_4, R_8	Qarshi, Mirishkor, Ko‘kdala

11-jadval ma’lumotlarida keltirilgan qiymatlar $R_1 - R_8$ ko‘rsatkichlarning kombinatsiyasi asosida hisoblanib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligiga ishlab chiqarish omillari va tadbirkorlik qobiliyatiga taalluqli ko‘rsatkichlarning o‘zaro ta’sirini ifodalaydi. Jumladan, S_1 segmentidagi (R_1, R_2, R_6) sug‘oriladigan yer maydonlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligiga investitsiyalarning ta’sirini ifodalaydi.



1-rasm. Agrotadbirkorlik zonalarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sug‘oriladigan intensiv zonalarda ishlab chiqarishni tashkil qilish, mehnat resurslari yuqori bo‘lgan hududlarda tadbirkorlikning qo‘shimcha turlarini joriy qilish, tabiiy holda va qayta ishlangan mahsulotlarni eksport

qilishda investitsiyalarni qabul qilish uchun mavjud sharoit barqaror ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu segmenlarda agrotadbirkorlikni mintaqaviy xususiyatiga ko‘ra tashkiliy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishni tashkil qilish uchun jarayonni boshqarish subyektini shakllantirib olish maqsadga muvofiq. Bu yerda hududlarda ierarxik strukturaga ega davlat aralashuvi kam bo‘lgan kengash tashkil etishni tavsiya etiladi. Ushbu taklif etilayotgan mexanizmning asosiy markazida segmentalarning iqtisodiy imkoniyatlari va tabiiy-geografik xususiyatlariga ko‘ra rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish yotadi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi korxonalarining o‘z mablag‘lari va budjet tomonidan ajratilayotgan mablag‘larni, xorijiy investesiyalarni tarqoq holda sarflanishini cheklaydi.

